



## MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING TUTGAN O‘RNI

*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

**Kimsanboeva Maftuna Baxodirovna**

[maftunabahodirovna2525@gmail.com](mailto:maftunabahodirovna2525@gmail.com)

**Annotatsiya:** Soliqlarning mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati va mahalliy byudjet daromadlarini samaradorligini oshirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar taklif etildi.

**Kalit so‘zlar:** byudjet salohiyati, byudjetlararo transfert, mahalliy byudjet, mahalliy byudjetlar daromadlari, mahalliy byudjetlar xarajatlari, mahalliy soliqlar, solikli daromadlar, moliyaviy mustaqillik, mahalliy boshqaruv.

**Аннотация:** Предложены практические предложения и рекомендации по значению налогов в формировании доходов местных бюджетов и повышению эффективности использования доходов местных бюджетов.

**Ключевые слова:** бюджетная обеспеченность, межбюджетные трансферты, местный бюджет, доходы местного бюджета, расходы местного бюджета, местные налоги, налоговые поступления, финансовая самостоятельность, местное самоуправление.

**Abstract:** Practical proposals and recommendations were proposed on the importance of taxes in the formation of local budget revenues and on increasing the efficiency of local budget revenues.

**Keywords:** budget capacity, inter-budgetary transfers, local budget, local budget revenues, local budget expenditures, local taxes, tax revenues, financial independence, local government.

### Kirish

Hozirgi kunda davlat tomonidan mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2020 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini kengaytirish, byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning mas’uliyatini yanada oshirish, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag‘laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta’minlashga qaratilgan yangi byudjet tizimi joriy etildi.

Ilk bor, “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan mahalliy byudjetlar xarajatlari xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo‘yildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan hamda to‘liq mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining birinchi darajali xarajatlarni va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish borasida javobgarligini oshirishni, manbasi aniq bo'lmagan tadbirlarni amalga oshirmaslikni hamda byudjet intizomini yanada qat'iylashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda davlat moliyasini shakllantirish jarayonidagi muammolardan biri mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash bo'lib, bu borada iqtisodchi olimlar mahalliy byudjet moliyaviy barqarorligini ta'minlashda soliqlarning ahamiyatini oshirishga bog'liq ekanligini e'tirof etadi.

Bugungi kunda davlat moliyasini shakllantirish jarayonidagi muammolardan biri mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash bo'lib, bu borada iqtisodchi olimlar mahalliy byudjet moliyaviy barqarorligini ta'minlashda soliqlarning ahamiyatini oshirishga bog'liq ekanligini e'tirof etadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o'rni va ahamiyatini oshirish jarayonlari tadqiq etilgan.

Jumladan, A.Mamanazarov tadqiqot ishi mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish, H.Qobulov hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish, Z.Ro'ziev mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, A.Xayriddinov mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llarini, A. Burxanov va X.Qurbonovlar mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash choratadbirlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda keng qo'llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish lozimligini qayd etgan.

N.Xaydarov fikricha mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini ko'paytirish va viloyatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni jalb etishni rag'batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo'yicha xorijiy investorlar qanday turdagi tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro'yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo'l borligi ko'rsatilish lozim.

S.Mishina mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini shakllantirishning umumiy prinsiplari byudjet tizimini shakllantirish tamoyillariga hamda davlat va mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy tizimda bajaradigan roliga asoslanishini qayd etadi.

O. Kuznesova esa mahalliy byudjetlar daromadlari bazasining soliqli manbalari - bu soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda hamda nazorat tadbirlari davomida davlat xokimiyati organlari tomonidan qo'shimcha ravishda hisoblab chiqilgan byudjetga to'lanadigan soliqlarning yig'indisidir deya ta'rif bergan.

T. Naydenova va I.Shvesova mahalliy hokimiyatning moliyaviy asosini mahalliy byudjet tashkil etishini va mahalliy byudjetlarning daromadlari soliqlar va soliqsiz daromad turlari, shuningdek, qaytarilmaydigan daromadlar hisobidan shakllanishini e'tirof etgan.

Ye.Afanaseva mahalliy byudjetlarning mustaqilligiga byudjet daromadlarini vertikal boshqaruv orqali taqsimlash parametrlari bevosita ta'sir ko'rsatishini va barqaror bozor iqtisodiyotida byudjetlararo munosabatlar mahalliy hududlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda mustaqil mahalliy byudjetlarni shakllantirishga yordam berishini qayd etib o'tadi.

Xorijiy olimlardan Jeyms Alm, Robert D. Buschman, David L. Sjoquist fikricha mahalliy hokimiyatlar odatda shaxsiy manbalardan olinadigan daromadlarning bir nechta manbalariga, jumladan shaxsiy daromad solig'i, umumiy savdo solig'i, maxsus aksiz solig'i, yig'img'lar va mahalliy mulk solig'iga tayanadi deb hisoblasa, Takaaki Masaki esa markaziy hukumat tomonidan beriladigan moliyaviy transfertlar davlat xizmatlarini taqdim etishni moliyalashtirishga yordam beradi, ammo ular mahalliy daromadlarni shakllantirish ehtiyojini ham kamaytirishi mumkinligini ta'kidlagan.

E. Gorina fikricha moliyaviy barqarorlik - bu mahalliy hokimiyatning aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z majburiyatlarini doimiy ravishda bajarishi, mahalliy byudjetning qoniqarli moliyaviy holatini qisqa va uzoq muddatda ta'minlash qobiliyatidir. Muallif fikriga ko'ra, mahalliy hokimiyatlarning byudjetlarning xarajatlar qismini o'z daromadlari hisobidan bajarilishini ta'minlash qobiliyati mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini saqlashning asosiy shartidir.

L.M.Sinervo esa mahalliy hukumat o'z fuqarolari uchun yetarli va barqaror farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, bu esa soliq to'laydigan aholiga sifatli davlat xizmatlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi deb hisoblaydi. Uning fikricha moliyaviy boshqaruvning ikkita asosi ya'ni, birinchidan, davlat sektori uzoq muddatli istiqbolda o'z iqtisodi va mablag'larini muvozanatlashtirishi kerak, bu aholidan olinadigan soliqlar yetarli bo'lishini anglatadi, ikkinchidan, ular uchun xizmatlarni tashkil qilish va teng ravishda ishlatilishini ta'minlashi kerak. Ushbu asoslar mahalliy hokimiyatning moliyaviy barqarorligini namoyish etadi.

Yuqoridagi mulohazalarda iqtisodchilar tomonidan ilgari surilayotgan fikr mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va barqarorligini ta'minlashning amaldagi holati tadqiq etilgan. Fikrimizcha, bugungi kunda mahalliy byudjet daromadlarining asosiy manbai bo'lgan mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar daromadlarini to'liq shakllantira olmaydi. Shu o'rinda respublika soliqlaridan ajratmalar hamda yuqori byudjetdan quyi byudjetga berilayotgan moliyaviy yordamlar ajratish mexanizmini ham qo'shgan holda tadqiq etish lozim.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi, mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va ulushini tahlil qilish, hududlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va undan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-byudjet tizimining shaffofligini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlari bajarilishida manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida quyidagilar belgilandi:

solih-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rtta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi «natijaga yo'naltirilgan byudjet» tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

byudjet ma'lumotlarining ochiqqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish[6].

Qayd etilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar olib borish respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi qilib belgilanishi lozim. Bu bir tomondan mahalliy hokimiyat organlarining daromad bazasini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini yanada kengaytirish imkonini beradi.

### **Tahlil va natijalar**

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishga bog'liqdir. Bunda mahalliy byudjetlarga tushadigan soliq va yig'imlarning turi, miqdorini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig'imlar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo'nalish qilib belgilanishi lozim.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini mustahkamlash, xarajatlarini barqarorlashtirish, ularning daromad bazasini kengaytirib borish dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasi hududlarda yaratilayotgan milliy daromad, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, daromadlarning doimiy va bir maromda tushishi bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning ichki rezervlari hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish har bir hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

**2025-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari, xarajatlari va byudjetlararo tartibga soluvchi transferlarining prognozi, mlrd so‘m<sup>32</sup>**

<b>№</b>	<b>Hududlar</b>	<b>Daromadlar</b>	<b>Xarajatlar</b>	<b>Byudjetlararo tartibga soluvchi transferlar</b>
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 346,2	5 558,2	2 212,0
2.	Andijon viloyati	4 512,9	6 688,7	2 175,8
3.	Buxoro viloyati	4 573,2	5 263,7	690,5
4.	Jizzax viloyati	2 523,4	3 623,5	1 100,1
5.	Qashqadaryo viloyati	5 264,1	6 232,7	968,6
6.	Navoiy viloyati	3 384,4	3 476,9	92,5
7.	Namangan viloyati	3 942,8	6 166,3	2 223,5
8.	Samarqand viloyati	5 915,2	8 012,3	2 097,1
9.	Surxondaryo viloyati	3 464,6	5 520,6	2 056,0
10.	Sirdaryo viloyati	1 739,4	2 552,3	812,9
11.	Toshkent viloyati	6 819,4	7 082,0	262,6
12.	Farg‘ona viloyati	6 027,4	8 170,3	2 142,9
13.	Xorazm viloyati	3 166,4	4 497,5	1 331,1
14.	Toshkent shahri	11 156,9	11 419,1	262,2
	<b>Jami:</b>	<b>65 836,3</b>	<b>84 264,1</b>	<b>18 427,8</b>

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahri shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlaydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari, Toshkent shahri shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlarining prognozini ma’qullaydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi. Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi hamda mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-

<sup>32</sup> Fuqarolar uchun byudjet 2025 yil uchun loyiha

ehtiyajlarni to'laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarini bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi.

Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy byudjet daromadlarini ko'payishi va resurslarni tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi. Mahalliy byudjetlar potensialini mustahkamlash maqsadida qonuniy tarzda nafaqat mahalliy soliq va to'lovlarning tarkibini aniq belgilab qo'yishi, balki respublika ahamiyatidagi davlat soliqlarining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushlari dinamikasini tahlil qilish va uni yanada takomillashtirish ham zarurdir.

### **Xulosa va takliflar**

Shunday bo'lsada, hozirda byudjetlararo tartibga solish amaliyoti ayrim mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismini shakllanishini ta'minlamoqda. Boshqaruvchi daromadlarning bunday miqdorda bo'lishi mahalliy hokimiyat organlarining o'z mas'uliyatlarini yuqori darajada his qilmaslikka olib keladi, fikrimizcha, bu holat iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatiga ko'p ham mos kelavermaydi. Bundan tashqari mahalliy hokimiyat organlari respublikadagi donor mintaqalar va respublika byudjeti orqali qo'llab-quvvatlanishini bilganliklari uchun o'zlarining daromad bazalarini va iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga unchalik harakat qilmaydi. Ba'zi hududlar esa respublika byudjetidan mumkin qadar ko'proq mablag' olish maqsadida nafaqalar va turli ijtimoiy to'lovlar hajmini sun'iy ravishda oshirishga harakat qiladi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini o'rganish hamda mahalliy byudjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari, ya'ni mahalliy soliqlar hajmini oshirish va ularning asosida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy bazasini qayta tiklash;

Bugungi kunda mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari bo'lgan mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar xarajatlarini qoplay olmayotganligini hisobga olgan holda qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq;

Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'lmaganda 3 yilda bir marta o'zgartirish tartibini kiritish lozim;

Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga byudjetlararo transfertlar ajratish tizimining mavjudligi ularni yuqori byudjetga tobeligini bildiradi. Bu holat mahalliy hokimiyat organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini bermaydi va mahalliy hokimiyat organlarining boqimandaligini kuchaytiradi.

Bizning fikrimizcha, mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash mahalliy hokimiyat organlarining tadbirkorlikni rivojlantirishga, xususan, kichik va o'rta biznes sohasida manfaatdorligini oshirishdan dalolat beradi, bunda davlatning ma'muriy-hududiy

birliklari moliyaviy holatini yaxshilash va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z daromad bazasini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-657 son Qonuni. 2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589 son Qonuni.

2. Qobulov H.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - Toshkent: BMA, 2006. - 21 b.

3. Ro'ziev Z.I. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - Toshkent: BMA, 2011. - 21 b

4. Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - Toshkent: BMA, 2011. - 21 b

5. Burxanov A, Qurbonov X. "Hududlarda mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida)". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.

6. M.Kimsanboeva "Maxalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishida byudjetlararo transfertlarning ahamiyati" Aktual moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2025 261-267.

7. Fuqarolar uchun byudjet 2025 yil uchun (loyiha)